

# TADQIQOT VA INNOVATSIYALAR JURNALI

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

**SHARIPOVA Maxbuba Baxshilloevna**

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrası*

*dotsenti, (PhD)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14881289>

## “ALPOMISH”DA “TUHFA TO‘N OLISH” MOTIVI BADIY TALQINI

### ANNOTATSIYA

Dostonchilik noyob san'at turi sifatida ijodkor-baxshilar tomonidan ustoz-shogird an'anasi doirasida saqlab kelmoqda. Respublikamiz hududida shakllangan va hozirgacha davom etib kelayotgan dostonchilik maktablari say'-harakati bilan katta miqdordagi dostonlarimiz ma'naviy meros sifatida yetkazib berilgan.

Ming yillar davomida yaratilib, sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu betakror ma'naviy merosimiz durdonalarida xalqimizning o'ziga xos dunyoqarashi, azaliy e'tiqodiy tushunchalari, keng tafakkur tarzi, hayotga bo'lgan estetik munosabati, orzu-intilishlari, istak-umidlari, urf-odatlar talqini betakror badiiy ifodasini topganligi bilan alohida e'tiborni tortadi. Ushbu maqolada “Alpomish”da “tuhfa to'n olish” motivi badiiy talqini yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** epos, doston, baxshi, Alpomish, marosim, marosim folklori, syujet, poetik struktura, ertak morfologiyasi, an'ana.

## ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МОТИВА «ПОЛУЧЕНИЕ ПОДАРОК ТУН» В «АЛПОМИШЕ».

### АННОТАЦИЯ

Достанчилик сохраниется как уникальный вид искусства художников-бахши в традиции мастера-ученика. Большое количество наших былин передано как духовное наследие усилиями эпических школ, сформировавшихся на территории нашей республики и продолжающих существовать по сей день.

Эти шедевры нашего духовного наследия, создававшиеся на протяжении тысячелетий, отшлифованные и передаваемые из поколения в поколение, привлекают особое внимание благодаря неповторимому художественному выражению неповторимого мировоззрения нашего народа, исконных религиозных представлений, широкого образа мышления, эстетического отношения к жизни, интерпретации мечтаний, стремлений, желаний, традиций. В данной статье описывается художественная интерпретация мотива «получить подарок тун» в «Алпомиш».

**Ключевые слова:** эпос, эпос, бакши, Алпомыш, обряд, обрядовый фольклор, сюжет, поэтическая структура, сказочная морфология, традиция.

## ARTISTIC INTERPRETATION OF THE MOTIF “RECEIVING THE GIFT OF TUN” IN “ALPOMISH”

### ANNOTATION

Dostanchilik is preserved as a unique art form of bakhshi artists in the master-apprentice tradition. A large number of our epics have been passed on as a spiritual heritage through the efforts of epic schools that were formed on the territory of our republic and continue to exist to this day.

These masterpieces of our spiritual heritage, created over thousands of years, polished and passed on from generation to generation, attract special attention due to the unique artistic expression of the unique worldview of our people, primordial religious ideas, broad way of thinking, aesthetic attitude to life, interpretation of dreams, aspirations, desires, traditions. This article describes the artistic interpretation of the motif “Receiving a gift tun” in “Alpomish”.

**Key words:** epic, epic, bakhshi, Alpomysh, ritual, ritual folklore, plot, poetic structure, fairy-tale morphology, tradition.

### *Kirish*

Qahramonlik, vatanparvarlik, odamiylik, o‘zaro mehr-oqibat, do‘stlik va hamjihatlik, oila sha‘nini himoyalash kabi muhim insoniy g‘oyalar tarannumiga bag‘ishlangan “Alpomish” dostoni epik merosga ega barcha xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini tadqiq etish va nazariy xulosalar chiqarishda asosiy obyekt bo‘la oladi. Chunki uning sujeti va obrazlar tarkibida qadimgi yunon eposi “Odisseya”, koreys dostoni “Jumong” bilan o‘xshashliklar borligi aniqlangan. Doston butun turkiy xalqlarning baxshilari orasida ham mashhur. Uning qator versiya va variantlari yozib olingan.

Hozirgi globalashuv sharoiti, “ommaviy madaniyat” ta’siri xalqimizning asl qadriyatlarini munosib baholashni, ularni yosh avlod ehtiyojlari va davr talablariga mos holda targ‘ib etishni, jahon folklorshunosligining eng yangi va dolzarb nazariy konsepsiyalari asosida o‘rganishni bosh vazifaga aylantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi «PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-apreldagi 304-son «Baxshichilik va dostonchilik san‘atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

### *Asosiy qism*

Dunyo folklorshunosligining Amerika, Germaniya, Rossiya, Koreya, Turkiya kabi yirik ilmiy markazlarida ham “Alpomish” dostoni yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan [1, B.75].

Ular ko‘pincha ushbu dostonning versiya va variantlari, ularni qiyosiy o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, dostonning rus, nemis, ingliz, turk tillariga tarjimalarini amalga oshirishda H.Paksoy, S.Baura, L.Penkovskiy, Karl Rayxl, Oysu Shimshek va Oynur Oz xizmatlari katta bo‘ldi. O‘zbek folklorshunosligida “Alpomish”ning versiya va variantlari, doston sujeti, motivlar silsilasi, obrazlari, ijro xususiyatlari, baxshilar repertuaridagi o‘rni xususida H.T.Zarifov, M.Afzalov, Maqsud Shayxzoda, N.Shukurov, M.Saidov, M.Murodov, T.Mirzayev, O.Sobirov, G‘.Musina, M.Qo‘shmoqov, T.G‘oziboyev, S.Yo‘ldosheva, I.Yormatov, A.Ergashev, O.Madayev, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, N.G.Allambergenova izlanishlari alohida e‘tiborga molik [2, B.99].

Farzand insonning nomini saqlab qoluvchisi, merosxo‘ri, kelajagining kafolati bo‘lganligini to‘liq anglagan Go‘ro‘g‘li bolasi yo‘qligidan ruhiy azoblanadi, qattiq o‘kinadi. U Xizr Ilyos va chiltonlar ko‘magida Hasanxonni Azrumdan, Avazxonni Xunxordan olib kelib, o‘ziga farzand qiladi. Shularni tasvirlash jarayonida xalqning farzandga to‘y berish, bunda bolaga va uning yaqinlariga chaqaloq nomidan sarpo kiydirish udumlari talqiniga alohida o‘rin ajratilgani kuzatiladi. Jumladan, “Avazxon” dostonida keltirilgan shunday sarpo kiydirish odatining alohida tasviri keltirilgan. Darhaqiqat, to‘yda sarpo kiydirish odati hozirgacha saqlanib kelayotir.

Xalqimizda bu “to‘n kiydirish” shaklida uchraydi. Mana shuni inobatga olib, mazkur dostonida, avvalo, o‘zbek to‘nlari va uning turlari, uning qanday matodan tikilganligiga qarab nomlanishi hamda turlanishi haqidagi etnografik ma‘lumotlarni mazmunan qamrab olgan quyidagi satrlar alohida diqqatni tortadi:

*Kundal, kimxob, shol to‘nlarni,  
Opkep o‘rtaga tashladi...  
Kundal, latta, har rang to‘nni,  
Hasan bolaga kiydirdi [3, B.307].*

Bu misralar orqali o‘zbek to‘nlarining kimxob, kundal, shol, latta to‘n singari turlari borligi ta‘kidlanmoqda.

“Alpomish”da “tuhfa to‘n olish” motivi mavjud. Unda Boysari boshliq o‘n ming uyli Boysun ahli Kashalga kelib, bu yerlik dehqonlarning ekinini tushunmay, ularni oddiy o‘t-o‘lan deb o‘ylab, mol-qo‘ylariga yedirishi o‘troq xalqning noroziligini keltirib chiqaradi. Bu haqda yurt oqsoqol va arboblari hukmdor Toychixonga arz qilib boradilar. Yuborilgan jallod Boysarining qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, uni xonning huzuriga olib keladi. Boysari aybiga iqrar bo‘lgach, gunohi o‘tilib, Toychixonning “tuhfa to‘n”ini oladi. Ammo bu to‘n ostidan uning qo‘li bog‘liqligicha qolgani o‘ziga xos ramziy ishorani anglatadi. Bu bilan Boysari va uning odamlari yuzaki izzatda, ammo ichdan “qo‘li bog‘liq”, ya‘ni erksiz ekani bildiriladi.

Go‘ro‘g‘lining o‘ziga o‘g‘il qilib ergashtirib kelgan yosh Avazni pari xotinlari tan olib, uni ko‘ylaklarining yoqasidan solib, etagidan chiqarashi detali asosida o‘zbeklar orasida onalarning o‘zi tug‘magan biror bolani farzandlikka olishi uchun boqib olingan bolani o‘z ko‘ylagi yoqasidan kiritib, etagidan chiqarishi odatga aylangani anglashiladi.

Shundan so‘ng Go‘ro‘g‘lining katta xotini Yunus pari ota-bolaning boshidan tilla sochqi sochadi.

To‘ylarda to‘y sababchilari (beshikka boylanayotgan chaqaloq, sunnat qilinayotgan bola, muchal yoshini nishonlayotgan bola, kelin-kuyovlar) ustidan sochqi sochish ham azaliy udumlarimizdan biridir. Dostonida ana shu udumga daxldor “tanga sochish” odati tasvirlangan va bunda tilla tanga qut-baraka, davlat va boylik ramzini ifodalashga xizmat qilgan.

Shuningdek, “Avazxon” dostonida to‘ydan tashqari o‘lim bilan bog‘liq motam marosimiga aloqador ayrim udumlarga ham ishora qilinganiga guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, unda aza marosimiga daxldor marhum hurmati uchun erkak yaqinlarining tayoq, ya‘ni hassa ushlab, ayol qarindoshlarining sochini yoyib ovoz solishi, eri o‘lgan ayolarning “to‘ram”lab yig‘i qilishi, obro‘li insonlar dafn marosimida sadr tepish singari udumlarga ishora qilib o‘tilgani kuzatiladi. Masalan:

*“Voy otam” deb, tayoq ushlar uling yo‘q,  
“Voy otam” deb, sochin yoyar qizing yo‘q.*

*Yoki:*

*“To‘ramlating Yunusdayin yorini”*

*Yana:*

*Otingdan aylanay qodir,  
O‘lsam Yunus tepar sadir.*

Xullas, juda ko‘p dostonlarda xalqimizning go‘zal va betakror, insoniy mohiyati chuqur urf-odat va marosimlari tasviru talqinlariga alohida o‘rin ajratilgani namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, “Alpomish” dostonini tarixiy prinsip bilan o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Qolaversa, dostonni mazkur tamoyil bilan o‘rganish zarurati shunda ko‘rinadiki, unda bosh qahramonning doimiy dushmanlari borligi, bular qalmoqlar ekani ta‘kidlanishi va tasvirlanishi muayyan hayotiy asoslarga ega.

Dostonda tashqi va ichki dushmanlarga qaratilgan jang va hujumlar Alpomishning kuyovlikka da‘vogarlik qilayotgan qalmiq alplari o‘rtasidagi musobaqa xuddi kuyovlar musobaqasidek tasvirlangan. Ammo bu motiv asosida tarixiy haqiqat – turkiy qavmlarning bir-birini qo‘llab-quvvatlash maqsadida kurashga otlangani, o‘z xalqini ko‘paytirish maqsadida urug‘idan uylanishi, boshqa urug‘ vakillari uchun bunga yo‘l bermagani, o‘z qizlarining qo‘lini so‘ragan talabgorlar bilan jang qilgani, shu bilan xalqini yo‘q bo‘lib ketishdan xalos etgani bildiriladi. Demak, “Alpomish” dostoniga mana shuning uchun qalmoq alplari obrazi kiritilgan. Ular uydirma emas, tarixiy-badiiy haqiqatdan iborat, deyish mumkin.

Sh.Turdimov “Etnos va epos” munosabati xususida fikr yuritar ekan: “Qiyos tushuntirishga xizmat qilganidek, butunni qismlarga ajratish, yaxlitlash ham anglashni osonlashtiradi”, – deydi.[4,B.96] Darhaqiqat, olim aytganidek, Dobonbiyda yig‘ilib, Alpinbiyda namoyon bo‘lgan etnos quvvati Boybo‘ri / Boysarida ikki qutbga ajratilib, Alpomish va Barchinda qayta qad rostlab kamolga yetdi... “Alpomish” – xalqning asriy tajribalaridan kelib chiqqan xulosalari – bilimlarining qaymog‘i. Doston nafaqat bir oila, balki butun xalq – etnos hayotining timsollardagi ifodasi”dan tashkil topgan.

J.Eshonqul: “Epos va marosimni o‘rganishda, avvalambor, qiyosiy-tipologik metodning ustuvorligini inkor etmagan holda, struktural, lingvopoetik va ruhiy tahlil kabi ko‘plab metodlarga ham suyanish lozim bo‘ladi”, – deb yozadi [5, B.3-11].

Darhaqiqat, “Alpomish” dostonining badiiy strukturasiga juda ko‘plab diaxron va sinxron, ya‘ni arxaiklashgan, iste‘moldan chiqib ketgan va hozirgacha saqlanib kelayotgan bir qator magik, olaviy-maishiy marosimlar mazmuni singdirilgan bo‘lib, ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilish, o‘zaro qiyoslash, olim alohida ta‘kidlaganidek, “epos va eposdagi motivlar bilan muqoyasalash imkoniyati tug‘iladi”. Shuningdek, “lingvopoetik va ruhiy tahlil metodlari epos va marosim semantikasini chuqurroq yoritib berishda asosiy omil bo‘lsa, struktural metod epos va marosim tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Xulosa shuki, barcha xalq dostonlari qatori “Alpomish” dostonida ham eposning sujetli modeli unda uchraydigan (elchi yuborish, eldan begona yurtga ko‘chish, qiz va yigit sevgisiga yaqinlarining qarshiligi yoki ijobiy munosabati, kuyov bo‘ladigan yigitning ijtimoiy mavqei tavsifi, uning qaylig‘i o‘ylab topgan vazifalar (shartlar)ni jasorat bilan bajarishi, oldida paydo bo‘lgan to‘siqlarni yengib o‘tishi, visolga erishish, ammo yangi kuyovning paydo bo‘lishi, turmush o‘rtog‘ining ikkinchi marta ixtiyorsiz turmushga chiqayotgani paytida kuyov-qahramonning o‘z vaqtida paydo bo‘lishi kabi) an‘anaviy motivlar asosida belgilanadi.

O‘zbek alpomishshunosligi XX asrning 1940-50, 1960-70, 1980-90, XX asr oxiri va XIX asr boshlari yoki Istiqlol davrida bosqichma-bosqich ilmiy-nazariy tadrijga erishib keldi. Uning respublikamizdagi turli hududlardan yozib olingan variantlari qiyosiy, empirik, tipologik, struktural, lingvopoetik va ruhiy tahlil metodlari vositasida o‘rganilib kelinmoqda.

**ИҚТИБОСЛАР. REFERENCES. СНОСКИ.**

1. Ингёнг О. “Алпомиш” ва “Жумўнг” дostonларининг қиёсий типологияси: Филол. фан докт. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2014. – 75 б.
2. Шукуров Н. “Алпомиш” дostonи ҳақида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1956. – 2-сон. – Б.99
3. Авазхон. – Б. 307.
4. Турдимов Ш. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 96 б.
5. Эшонкул Ж. Эпос ва маросим // Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.3-11.